

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**TOSHEV OTABEK SODIQOVICH**

**AYBGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDAGI KELISHUV INSTITUTINING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

12.00.09–Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq  
va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (PhD) диссертации**  
**Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation**

**Toshev Otabek Sodiqovich**

Аyбга iqrорlik to'g'risidagi kelishuv institutining o'ziga хos  
хususiyatlari.....3

**Тошев Отабек Содикович**

Особенности института соглашения о признании вины .....25

**Toshev Otabek Sodikovich**

Features of the institution of the plea agreement.....49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**TOSHEV OTABEK SODIQOVICH**

**AYBGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDAGI KELISHUV INSTITUTINING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

12.00.09–Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Yu769 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” ta’lim Axborot ta’lim tarmog‘ida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Suyunova Dilbar Joldasbayevna**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponenlar:**

**To‘laganova Gulchexra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Mo‘minov Bezxod Abduvaxobovich**  
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 9-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +998971 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1150-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., A.Temur ko‘chasi, 13. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 28-iyulda tarqatildi.

(2023-yil 28-iyuldagi 03-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A. Otajonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**M.Q. O‘razaliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**N.S. Salayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda jinoyatchilik bilan kurashishda odil sudlovning samarali va tezkor, soddalashtirilgan jarayonlarini qo'llash, jumladan aybga iqrор bo'lish to'g'risidagi kelishuv institutidan foydalanish ko'plab davlatlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, AQSH federal sudlarining 95 foiz ishlari aybga iqrорlik bo'yicha kelishuv asosida o'z yechimini topadi. Buyuk Britaniyada esa, bu ko'rsatkich kamroq nisbatni tashkil etadi, ya'ni magistrat sudlarda ko'rilgan ishlarning 87 foizi kelishuv asosida tugallanadi<sup>1</sup>. Qonuniyligni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish va odil sudlovni ta'minlashni baholovchi World Justice Project xalqaro tashkilotining Rule of Law reytingida O'zbekistonning 2022-yilda 139 ta davlat ichida 78-o'rinni egallashi (2021-yilda – 85 o'rin edi), odil sudlovni ta'minlash sohasidagi keng qamrovli islohotlarni, shu jumladan bu sohada ilmiy va amaliy izlanishlarni davom ettirish zarurati mavjudligidan darak beradi.

Jahonda odil sudlovni amalga oshirish shakllaridan biri sifatida aybga iqrорlik kelishuvi instituti samaradorligini oshirish, ushbu jinoyat-protsessual kelishuvning yangi zamonaviy huquqiy mexanizmlarini yaratish, ayblanuvchi va jabrlanuvchi o'rtasida vujudga keladigan huquqiy protsessual munosabatlarda davlat organlari ishtirokini qisqartirish va soddalashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ayni damda, inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan jinoyat protsessini ixchamlashtirish, bu sohada ayrim toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda taraflar o'rtasida shartnomaviy tushdagi munosabatlarga yo'l qo'yish va aksincha, davlat va jamiyat ahamiyatga ega jinoyatlarni fosh etishda kelishish, jazodan qutilib qolish imkoniyatini bartaraf etish, bu borada ilmiy prognoz ishlarini yanada kuchaytirishga oid tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida jamiyat va davlat hayotida eng muhim jabhalarni isloh qilish, yillar davomida to'plangan muammolarning yechimini topish vazifalari belgilandi. Jumladan, Strategiyaning 15-maqsadi sifatida "Nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish belgilangan"<sup>2</sup>. Shu bilan birga, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 28-moddasida shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi alohida qayd etilganligi mazkur protsessual institutning ilmiy-nazariy tadqiq etishni taqozo etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti JPK, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2016), "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017), "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

<sup>1</sup> Hungerford-Welch P. Criminal Procedure and Sentencing. London: Routledge, 2014.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/5841063>

to‘g‘risida”gi (2018), “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2020), “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tarraqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022) Farmonlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Aybga iqrорlik kelishuvi protsessual institutining nazariy-huquqiy va protsessual jihatlarini ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Biroq, tadqiqot mavzusining u yoki bu jihatlarini jinoyat huquqi yoki jinoyat-protsessual huquqi doirasida Sh. Axmedov, D. Bazarova, D. Bekmatova, E. Bobojonov, Z. Inog‘omjonova, A. Kurbanova, A. Muhitdinov, Z. Muqimova, D. Nurumov, M. Rustamboyev, D. Suyunova, F. Muxiddinov, O. Murodov, B. Xidoyatov, S. Raxmanova, U. Tuxtashева, G. To‘laganova, N. Xayriyev, U. Xamidullayeva, N. Sharipova, G. Shermatova, N. Qo‘shayev, Q. Matkarimov, S. Toshniyozov kabi mamlakatimiz olimlari va amaliyotchilarning ilmiy-amaliy ishlarida ko‘rib chiqilgan va ushbu institutning ayrim masalalariga oid fikrlar bildirilgan.

Aybga iqrорlik kelishuvi institutining o‘ziga xos jihatlariga oid ilmiy izlanishlar MDH mamlakatlari olimlari, jumladan X. D. Alikperov, V. A. Alizade, A. G. Volevodz, L. V. Golovko, M. A. Zeynalov, I. E. Zvecharovskiy, V. V. Kolesnik, N. A. Solovyeva, L. G. Tatyana va boshqalar tomonidan ham olib borilgan.

Xorijiy amaliyotda bu kelishuv ancha vaqtdan beri muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinmoqda, muayyan yuridik amaliyot va ilmiy doktrina shakllanib ulgurgan. Bu borada Betty Vos, Erverett, P. Wheeler, H. John, Langbein, Kittipong Kittayarak, S. Mark, Umbreit, Nicholas Medcroft, B. Robert, Coates, B. Stephanos, Stephen Hockman, F. Tony va Marshall<sup>1</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

O‘zbekiston jinoyat protsessi uchun novella bo‘lgan aybga iqrорlik to‘g‘risidagi kelishuv instituti haqida milliy protsessual fanda hozircha ilmiy tadqiqotlar va chiqishlar ko‘p emas. Shuningdek ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar mazkur institutning umumiy tushunchasi va mohiyatiga to‘xtalib, alohida monografiya ishi tarzida uning protsessual maqsadlari va vazifalarini ochib berishmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasidagi “Sud-

---

<sup>1</sup> Keltirilgan olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

huquq tizimini isloh qilish sharoitida jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari” loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqot maqsadi** aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish, shuningdek mazkur sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va ularni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jinoyat protsessiga aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutini joriy etishning maqsadi va ijtimoiy zaruratini o‘rganish;

aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni tuzish institutining tushunchasi va mazmun-mohiyatini tadqiq etish hamda boshqa o‘xshash jinoyat-protsessual institutlar bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

sudga qadar bosqichida va sud jarayonida aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutini qo‘llashning protsessual jihatlarini o‘rganish;

aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutini sud-tergov amaliyotida qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish;

romano-german va anglo-sakson huquq tizimlari ayrim davlatlarida aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutining tartibga solinishini o‘rganish;

MDH davlatlarida aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutini qo‘llash mexanizmini tahlil qilish;

O‘zbekistonda aybga iqrorlik to‘g‘risidagi protsessual kelishuvi institutini yanada takomillashtirish yuzasidan asoslantirilgan taklif, tavsiya va xulosalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** aybga iqrorlik kelishuvini qo‘llashga oid protsessual ijtimoiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutini tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi va MDH hamda boshqa xorijiy davlatlarining normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyoti, fanda ushbu sohada mavjud ilmiy-nazariy qarashlar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishini amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sillogizm kabi mantiqiy usulardan, tarixiylik, komparativ, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq qilish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, qonun hujjatlari talqini, huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish, ijtimoiy so‘rov, jinoyat ishlariga oid materiallarni o‘rganish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan va og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuv ekanligi asoslantirilgan;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berishi zarurligi asoslangan;

kelishuv prokuror, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi tomonidan imzolanishi, kelishuv imzolanganiga qadar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kelishuv tuzish masalasini va uning oqibatlarini himoyachi bilan xoli qolib va maxfiy holda muhokama qilish huquqiga ega ekanligi isbotlangan;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan bo'lsa, himoyachidan voz kechishiga yo'l qo'yilmasligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

dissertatsiya ishida aybga iqrorlik kelishuvi tushunchasi va uning boshqa protsessual kelishuvlardan farqli jihatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan;

Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 17-son qarori, shuningdek 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-son qarorida berilishi lozim bo'lgan ayrim tushuntirishlar tavsiya etilgan;

xalqaro standartlar va xorij tajribasiga asoslangan holda qonunchilikda soddalashtirilgan jinoyat-protsessual shakllarni joriy etish lozimligi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksiga aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv institutini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati asoslab berilgan hamda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik normalari, xorijiy davlatlarning qonuni qo'llash amaliyotidagi tajribasi, sotsiologik tadqiqotlar (anketa so'rovi, intervyu olish), statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalarini umumlashtirishga asoslangan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tgan. Tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan. Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ning hisoboti, Oliy sud, Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlaridan foydalanilgan, shuningdek 200 nafar sudya, prokuror, tergovchi va advokatlar o'rtasida ushbu institutni yanada takomillashtirish istiqbollariga oid so'rov o'tkazilgan. Bundan tashqari, 2021–2022-yillarda yuritilgan 100 tadan ortiq jinoyat ishining materiallari tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shakllantirilgan ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy takliflar va tavsiyalar jinoyat-protsessual huquqi fanini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan xulosalardan kelajakda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, huquqshunoslik yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida dars o'tish hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishi jinoyat ishini qo'zg'atish instituti muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan amaliy tavsiya va takliflardan amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda, dastlabki tergov, surishtiruv va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar xodimlarining malakasini

o'zgarishda, sud va tergov organlari faoliyatida, shuningdek jinoyat-protsessual huquqi, jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasi, kriminalistika, huquqbuzarliklarning oldini olish kabi fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv institutini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni o'ziga nisbatan qo'yilgan gumonga, ayblovga rozi bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko'maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatlar bo'yicha tuziladigan kelishuv ekanligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-sonli "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning 2-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 13-dekabrda 06-13/71-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi aybga iqrorlik kelishuvi tushunchasini aniqlashtirishga xizmat qiladi;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berishi zarurligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-sonli "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning 2-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 13-dekabrda 06-13/71-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi aybga iqrorlik kelishuvini tuzishga oid ishlarni ko'rib chiqishda sansalorlik oldini olishga yordam berib, protsess ishtirokchilari huquq va manfaatlari himoya qilinishiga imkon bergan;

kelishuv prokuror, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi tomonidan imzolanishi, kelishuv imzolanganiga qadar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kelishuv tuzish masalasini va uning oqibatlarini himoyachi bilan xoli qolib va maxfiy holda muhokama qilish huquqiga ega ekanligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-sonli "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning 2-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 13-dekabrda 06-13/71-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi aybga iqrorlik kelishuvini tuzishga oid ishlarni ko'rib chiqishda protsess ishtirokchilari huquqiy yordam olishini ta'minlashga imkon bergan;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan bo'lsa, himoyachidan voz kechishiga yo'l qo'yilmasligi haqidagi takliflar Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda "Gumon qilinuvchi va

ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 17-son qarorining 14 bandi beshinchi xatboshisida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil 10-noyabrdagi 08/752-22-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvni tuzishda himoyachi ishtiroki ta'minlanishiga yordam berib, fuqarolarning huquqlari himoya qilinishiga imkon bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** O'tkazilgan ilmiy tadqiqot yuzasidan olingan natijalar 3 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, shu jumladan, 2 ta xalqaro miqyosida va 1 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta ilmiy maqola (ulardan 8 tasi xorijiy nashrda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, sakkizta paragrafdan iborat bo'lgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 150 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jinoyat protsessual qonunchiligida aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvning ijtimoiy va huquqiy asoslari**" deb nomlanib, unda jinoyat protsessiga aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv institutining joriy etish maqsadi va ijtimoiy zarurati, mazkur kelishuv institutining tushunchasi va mazmun-mohiyati tadqiq etilgan, shuningdek aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv instituti boshqa o'xshash jinoyat-protsessual institutlar bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Tadqiqotchi hozirgi kunda dunyoning rivojlangan davlatlari o'z qonunlarini liberallashtirish yo'lida izlanayotgani, shu jumladan O'zbekistonda ham jinoyat-protsessual siyosatni liberallashtirish doirasida JPKga "Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv" deb nomlangan yangi 62<sup>1</sup>-bob kiritilgani, biroq, sud-tergov amaliyotining tahlili jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ta'minlashda bir qator muammolar mavjudligi, xususan aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv institutini amaliyotda qo'llashda aniq yo'l-yo'riq va sud tavsiyalari mavjud emasligini qayd etgan.

Muallif mazkur institutni tahlil etishda aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv – gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning jinoiy qilmishi uchun jazoni sezilarli darajada

kamaytirish evaziga mazkur jinoyatni tezkor tergov qilinishiga ko‘maklashishdan iborat ixtiyoriy majburiyatiga asoslangan yarashuv (murosa) bitimlaridan biri ekanligi, o‘z maqsadiga ko‘ra bir qator funksiyalarni amalga oshirishga hissa qo‘shishini bildirib, uning funksiyalarini umumiy va xususiy turlarga ajratadi.

Kelishuvning umumiy funksiyalariga, Konstitutsiyada mustahkamlangan inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek jinoyat odil sudlovining maqsadini amalga oshirishga doir vazifalarni kiritadi, xususiy funksiyalarga esa jinoyatni tezkor sur‘atda ochishga ko‘maklashish, sodir etilgan qilmish uchun qonun doirasida jinoiy sanksiyani yengillashtirishni kafolatlash orqali gumon qilinuvcini, ayblanuvchini rag‘batlantirish, axloqan tuzatish (dastlabki tergov bosqichida jinoyatni sodir etgan shaxs uchun tuzalish yo‘liga kirishga imkon berish), jinoyatlarning oldini olish, shaxsni, jamiyatni va davlatni qo‘riqlash funksiyalari kirishi asoslangan.

Dissertatsiyada muallif olimlar va amaliyotchilarning aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvning maqsadi va vazifalari borasida fikr va qarashlarni tahlil qilib, jinoiy ish yuritishda soddalashtirilgan shakldan foydalanish jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni to‘liq to‘planmasligi, shaxsning o‘z aybga iqror bo‘lishi ustuvor bo‘lishi, sud majlisida ish bo‘yicha to‘plangan dalillarning o‘rganilmasligi yoki to‘laqonli o‘rganilmasligi hamda sud jarayoni tarbiyaviy ta’siri kamayishiga olib kelishi haqidagi ilmiy fikrlar notug‘ri degan xulosaga keladi. Jumladan, jinoyat sudi ish yurituvda odil sudlov bilan kelishuvlar, eng avvalo, jinoyat protsessi maqsadlarini samarali amalga oshirishni ta’minlash, moddiy va inson resurslarini oqilona tejash, ayblanuvchiga tergov va sud organlariga jinoyatlarni ochish va tergov qilishda ko‘maklashish orqali o‘z jazosini qisqartirish imkoniyatini bera olishini asoslagan.

Ilmiy ishda aybga iqrorlik kelishuv institutini jinoyat protsessiga tatbiq etish zarurati ijtimoiy-huquqiy sabablari statistik tahlillar va xorijiy amaliyotdan misollar keltirish orqali isbotlangan.

Mazkur bob doirasida dissertant aybga iqrorlik kelishuvi borasida fikrlar xilma-xilligi, ularning keng tarqalganiga qaramay hanuzgacha aybga iqrorlik to‘g‘risida aniq tushunchaning mavjud emasligini qayd etib, ushbu institut milliy qonunchilik uchun yangilik bo‘lsa ham, jinoyat protsessi fani doirasida ancha ilgari tadqiq etila boshlagani haqida fikr yuritadi.

Muallif hozirgi zamonaviy ilm-fanda mavjud qarashlarni tahlil etar ekan (Q. Matkarimov, N. Qo‘shayev, N. I. Xayriyev va boshqalar), mazkur institut tushunchasini ta’riflashda uning ilmiy-nazariy jihatlari (soddalashtirilgan protsess turi ekanligi, sudgacha bosqichlarini qamrab olishi va boshqa) ham e’tiborga olinishi zarurligini ko‘rsatib o‘tgan.

Shuningdek, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv, ishtirokchilar tomonidan majburiyatlarni bajarish nuqtai-nazaridan bir tomonlama xarakterga ega bitim emasligi, boisi aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvdan har ikkala taraf manfaatdor bo‘lishini isbotlagan.

Shu kabi, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvda prokurorga nisbatan qaysidir majburiyatlarni bajarishni zimmasiga yuklashni qayd etish mumkin emasligi fikrini qayd etgan holda, bunga asos sifatida, sudga borib vaziyat batamom o‘zgarishi va

kelishuvdagi shartni qo'llashning iloji bo'lmay qolishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertant ushbu bobda aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv institutni boshqa o'xshash jinoyat-protsessual institutlari bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, hozirgi vaqtda butun dunyoda urf bo'lgan, jumladan O'zbekistonda ham qonunchilikka kiritilgan asosiy institutlar – aybga iqrорlik kelishuvi va yarashuvni ko'rib chiqqan bir qator ilmiy xulosalar bergan. Jumladan, aybga iqrорlik va yarashuv protsessual kelishuvlarining tabiati, shuningdek ularning jinoyat ishini yuritishning yangicha, zamonaviy shakli ekanligi va bunda jinoyat oqibatida buzilgan huquq va erkinliklarini tiklashda jabrlanuvchi bilan birga ayblanuvchi, tergov idoralari faol ishtirok etishlari, muzokaraga kirishib, muammoni yechishga imkon berishga qaratiladi.

Shu bilan birga, muallif tomonidan yarashuv institutini qo'llashda amaldagi ayrim jinoyat tarkiblarida zarar davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilishi holatida (masalan, JKning 179, 185<sup>2</sup> va boshqa moddalarida) yarashuv institutini qo'llashning qonuniy asosini yaratish uchun JKning 66<sup>1</sup>-moddasini tegishli mazmundagi 2-qism bilan to'ldirish taklif etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv institutining protsessual mexanizmi va uni huquqiy qo'llash masalalari”** deb nomlanib, unda sudga qadar bosqichda aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv institutini qo'llashning protsessual jihatlari hamda aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuvni sud tomonidan ko'rib chiqish tartibi tahlil qilingan, ushbu bosqichlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi bugungi kunda jinoyat protsessining o'ziga xos jihati – bu jinoyatlarni tezkorlik bilan ochish, protsessual vositalardan oqilona foydalanish maqsadlarida samarali protsessual shakllarni izlash va qo'llash bilan bog'liq bo'lib, protsessual kelishuv instituti aynan samarali protsessual shakllardan biri hisoblanadi, deb ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, aybga iqrорlik kelishuvi institutining mohiyati o'z o'zidan aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi nuqtai nazaridan ancha munozarali holat sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Ayrim fikrlarga ko'ra, bu institut orqali gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybsizlik prezumpsiyasi prinsipini shubha ostida qoldiradi. Shu munosabat bilan bir jiddiy savol yuzaga keladi: jinoyat protsessining har biri prinsipi jinoyat protsessining mohiyatini belgilovchi, jinoyat ishi bo'yicha adolatli odil sudlovni, shaxs, uning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi va ta'minlovchi asosiy, fundamental, yo'naltiruvchi norma ekanligi haqidagi g'oya rad etilishi mumkinmi?! Qolaversa, aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuvni tuzish iltimosnomasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi jinoyatni, o'zining aybini isbotlash uchun xizmat qilish sifatida tergov qilishga ko'maklashish majburiyatini oladi.

Tadqiqotchi mazkur institutni qo'llashda ayblanuvchi darhol jinoyatchilar toifasiga o'tkazilmasligi, aybga iqrорlik kelishuvini tuzish aybsizlik prezumpsiyasini mutlaqo inkor etmasligini, ayblov va himoya tarafi aybni tan olishda mavjud dalillardan kelib chiqib ish ko'rishi haqidagi fikrni ilgari suradi.

Ayni chogʻda, muallif Yu. V. Chayka, R. R. Kovalyovlarning aybsizlik prezumpsiyasi inkor etilishi oʻz-oʻzidan tortishuvchanlik prinsipini ham istisno qiladi, degan fikriga qoʻshilmasdan, ayblov va himoya taraflari aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi bitimni tuzishda oʻz pozitsiyalarini mustahkamlash va himoya qilish maqsadida harakat qilishini, ayblov jinoyatni ochish, jinoyat sodir etishda ishtirok etgan boshqa shaxslarni (sheriklarni) fosh etish, ularning aybini tasdiqlovchi barcha dalillarni toʻplash, yetkazilgan moddiy zararni qoplash orqali oʻz maqsadiga, himoya tarafi esa sodir etilgan jinoyat uchun jazoni yengillashtirishga erishishini isbotlaydi.

Muallif mazkur bob doirasida aybga iqrorlik kelishuvini voyaga yetmaganlar va boshqa ayrim toifadagi shaxslar bilan tuzishda ayrim muammoli holatlar mavjudligi xususida oʻz fikrini bildirib, JPKning 62<sup>1</sup>-bobi mazmuniga koʻra voyaga yetmaganlar bilan aybga iqrorlik haqida kelishuv tuzilishiga monelik yoʻqligini, ayni damda, garchi protsessual qonunchilikda voyaga yetmaganlarga nisbatan qoʻshimcha protsessual kafolatlar koʻzda tutilgan boʻlsa ham, mazkur bobda voyaga yetmaganlarga nisbatan ish yuritishning oʻziga xos xususiyatlari eʼtiborga olinmaganligini qayd etgan.

Ushbu masalada xorijiy davlatlar tajribasiga murojaat qilsak, Germaniya JPKda voyaga yetmaganlarga nisbatan kelishuvlar qoʻllanilmasligi aniq belgilab qoʻyilgan, RF JPKda koʻzda tutilmagan boʻlsada RF Oliy sudi tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan mazkur institut qoʻllanilmasligi haqida tushuntirish berilgan.

Tadqiqotchi koʻrib chiqilayotgan toifadagi ishlar boʻyicha sud muhokamasining oʻziga xos jihati – taraflar muzokarasining predmeti faqat sudlanuvchiga hukm chiqarish masalalari bilan chegaralanishi, sud muhokamasida ayblov xulosasi (dalolatnomasi) va dastlabki tergovning baʼzi materiallarini eʼlon qilish, sudlanuvchini soʻroq qilish va zarurat boʻlganda jabrlanuvchilar, guvohlarni soʻroq qilishdan iborat qisqa sud tergoviga ruxsat berish maqbul ekanligi haqidagi ilmiy qarashlarni tahlil qiladi.

Tahlil natijasida, tadqiqotchi bir qator xulosalarga keladi: 1) sud muhokamasi predmeti – bu ixtiyoriy, qoʻyilgan aybning mohiyatini chuqur anglab, aybini soʻzsiz tan olgan holda bayon etilgan aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv; 2) sud muhokamasi qisqartirilgan tartibda oʻtkaziladi; 3) jabrlanuvchi ishtirok etadi, ammo uning kelmasligi ishni koʻrishga toʻsqinlik qilmaydi; 4) aybga iqrorlik kelishuvi haqidagi masala jinoyat ishining sudga qadar bosqichida hal etilishi lozim; 5) Jinoyat kodeksi tegishli moddasida (qismida) nazarda tutilgan eng koʻp jazoning yarmidan oshmasligi kerak; 6) jabrlanuvchining haq-huquqlari poymol etilmaydi; 7) aybga iqrorlik kelishuvini rasmiylashtirishda himoyachi ishtiroki shart; 8) chiqarilgan hukm ustidan yuqori instansiya sudlariga apellyatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat berish mumkin; 9) kelishuv bir necha ayblanuvchilar bilan tuzilganida, har biri bilan alohida tuziladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv institutining huquqiy tartibga solinishi”** deb nomlanib, unda romano-german va anglo-sakson huquq tizimlari ayrim davlatlarida aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv institutining tartibga solinishi, MDH davlatlarida aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv institutini

qo'llash mexanizmi, hamda O'zbekistonda aybga iqrorlik protsessual kelishuvi shaklidagi soddalashtirilgan ish yuritish tartibini yanada takomillashtirish istiqbollarning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan.

Muallif jahonda bir qancha huquq oilalari mavjud bo'lib, ularda protsessual kelishuv institutining turi sifatida yarashuv institutini qo'llash asoslari va jarayonida bir qancha farqli jihatlarni ko'rish mumkin, masalan, anglo-sakson huquq tizimiga oid davlatlar jinoyat huquqida yarashuv institutini qo'llashning moddiy-huquqiy asosi bo'lib qilmishning kam ahamiyatliligi hisoblanadi, kontinental huquq tizimiga mansub davlatlarda esa, yarashuv asoslari aniq qilib ko'rsatiladi, hamda huquqbuzarning jabrlanuvchi bilan yarashishi ommaviy shartnoma ko'rinishida rasmiylashtiriladi, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, anglo-sakson huquq oilasi mamlakatlarida aybga iqrorlik kelishuvi g'oyatda taraqqiy topgan jinoyat-protsessual institutlardan biri hisoblanadi. Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv instituti (plea bargain) jinoiy odil sudlovda uzoq tarixga ega bo'lgan protsessual institutlardan biri hisoblanadi. Mazkur ish yuritish tartibi aybga iqrorlik to'g'risidagi bitimga asoslanib, uning eng mumtoz varianti AQSH jinoyat protsessi tarixi bilan bog'liq. XIX asrda AQSHda vujudga kelgan jinoyat ishini yuritishning mazkur tartibi hozirda jinoyat ishlarining 90 foizida qo'llaniladi.

Bundan tashqari, taraflar o'rtasida tuzilgan har qanday kelishuvlar mutlaqo tabiiydir, chunki protsess taraflar o'rtasidagi nizoga asoslanadi, nizoning yo'qligi esa ish bo'yicha protsessning o'tkazilmasligini anglatadi. Shu sababli AQSHda barcha toifadagi sud ishlarida va sudda ishlarni ko'rishning har qanday bosqichida aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvlar tuziladi.

Shuningdek, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvni tuzishda sudning roli muhim va hal qiluvchi hisoblanadi. Ushbu institutning boshqa institutlardan farqli jihati shundaki, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning shartlari sud tomonidan majburiy tasdiqlanishi hisoblanadi. Sud kelishuv shartlarini muhokama qilishda ishtirok etishi taqiqlanadi, biroq ochiq sud majlisida aybga iqrorlik kelishuvi ixtiyoriy bo'lganlik holatini aniqlashtirishga va ushbu shartlar bo'yicha taraflarning kelishuvini rad etishga yoki ish holatlarini o'rganib sudlanuvchining aybini tasdiqlovchi holatlarni o'rgangunga qadar ishni keyinga qoldirishga haqli hisoblanadi.

Qolaversa, ayblanuvchi aybga iqrorlik kelishuvni tuzish bo'yicha iltimosnoma bilan murojaat etishi evaziga bir qator konstitutsiyaviy huquqlardan voz kechadi, ya'ni o'zini ayblamaslik uchun ishni sud hay'atida ko'rishdan voz kechib, advokat yordamida tez va ochiq sud muhokamasini o'tkazishga erishadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, romano-german huquq oilasiga mansub davlatlarda aybga iqrorlik kelishuvi bo'yicha jinoyat ishini yuritish tartibi ham o'ziga xos jihatlarga ega. Eng avvalo, bunday kelishuvlarni tuzishda jinoyatlar doirasi cheklangan. Masalan, Fransiya JPKda 1999-yildan nazarda tutilgan aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvini faqat qonunda qat'iy belgilangan toifadagi jinoyatlar yuzasidan (jazo chorasida sifatida jarima yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish choralari nazarda tutilgan jinoyatlar) tuzish mumkin. Italiya JPKda sodir etilgan jinoyat uchun uch yildan ortiq bo'lmagan ozodlikdan mahrum qilish

tariqasidagi jazo nazarda tutilgan bo'lsa, taraflarning jazo masalasini o'zaro hal qilishni so'rab yozgan arizalari bo'lsa, sud tergovni olib borilmasligi qayd etilgan.

MDH davlatlarida sud tergovini soddalashtirilgan tartibda yuritish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, jinoyat-protsessual qonunchilikda protsessual kelishuvning uchta asosiy shakllari mavjud. Jumladan:

- yarashuv haqida kelishuv;
- aybga iqrorlik haqida kelishuv;
- hamkorlik qilish haqida kelishuv kabilar.

RF JPKga ko'ra, protsessual kelishuvga erishgan taqdirda, sudya sudlanuvchini sodir etgan jinoyati uchun Jinoyat kodeksida belgilangan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi eng ko'p jazoning uchdan ikki qismidan ko'p bo'lmagan muddatga jazo muddatini belgilashi mumkin.

Ushbu normada ayblanuvchining aybga iqrorligi yuzasidan arizasi va sud muhokamasisiz hukm chiqarish yuzasidan keltirilgan iltimosnomani mazmunan hal qilish tartibi qayd etilgan. Bunda sud tergovni o'tkazilmaydi.

Muallif tomonidan Qozog'iston JPKda milliy protsessual qonunchilikda joriy etish uchun o'rinli bo'lgan ijobiy jihatlari mavjudligi qayd etilgan. Xususan:

O'zbekistonda protsessual kelishuvning faqatgina aybga iqrorlik shakli mavjud bo'lib, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatlar bo'yicha (JPK 62<sup>1</sup>-bob, 586<sup>1</sup>-mod.) tuzilsa, Qozog'istonda mazkur institutning ikki xil shakli, ya'ni uncha og'ir bo'lmagan, o'rtacha og'irlikdagi va og'ir jinoyatlar bo'yicha aybga iqrorlik hamda jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlarni hamda boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan o'ta og'ir jinoyatlarni, shuningdek ekstremistik va terroristik jinoyatlarni fosh qilish va tergov qilish bo'yicha hamkorlik to'g'risida kelishuv (QR JPK 13-bo'lim, 63-bob, 612-m.) nazarda tutilgan.

Qozog'istonda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqida ish yuritishning istalgan bosqichida, biroq, sud maslahatxonaga kirgunga qadar berishi mumkin bo'lsa (QR JPK 615-m.), O'zbekiston qonunchiligida aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani faqatgina ish yuritishning surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida berilishi mumkin (JPK 586<sup>2</sup> -moddasi) bo'lib, sud muhokamasi jarayonida kelishuv tuzish nazarda tutilmagan.

Muallif xorijiy qonunchilik va amaliyotini tahlil qilib, ko'pincha soddalashtirilgan sudlov tartibotlari JPKda alohida bo'limda mujassamlashtirilishi, chunki ular huquqiy tabiati, ish yuritish tartiboti, subyektlar doirasi va boshqa masalalar jihatidan bir-biriga ancha yaqin ekanligini qayd etadi. Jumladan, MDH doirasidagi mamlakatlar tajribasiga yuzlansak, RF JPKning X bobi "Alohida sud ishini yuritish tartibi" deb nomlanib, o'z tarkibiga ayblanuvchi e'lon qilingan ayblovga roziligi munosabati bilan sud qarorini chiqarishning alohida tartibi, hamkorlik to'g'risidagi kelishuvni tuzishda sud qarorini chiqarishning alohida tartibi kabi soddalashtirilgan tartiblar belgilangan.

Qozog'iston JPKning 13 bo'limi "Protsessual kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha ish yuritish" deb nomlanib, uning tarkibiga aybga iqrorlik haqida protsessual kelishuv, hamkorlik to'g'risidagi protsessual kelishuv tartiboti

yuzasidan ish yurituvi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, 13<sup>1</sup>-bo'limda buyruq tartibida ish yuritish tartiboti ham belgilangan.

Ukraina JPKning VI bo'limi "Alohida tartibda sud ish yurituvi" deb nomlanib, uning doirasida yarashuv bitimi va aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv ish yurituvlari ko'zda tutilgan.

Qirg'iziston JPKning XV bo'limi "Protssual kelishuvlar" deb nomlanib, unda xususan, aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv, hamkorlik to'g'risidagi kelishuv, taraflar yarashuvi to'g'risidagi protssual kelishuv bo'yicha soddalashtirilgan ish yuritish tartibotlari belgilangan.

Muallif tomonidan yuqoridagi xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlili asosida quyidagi ijobiy tajribalarni o'zlashtirib, milliy JPK normalarida aks ettirish tavsiya qilingan:

1) sudya sudlanuvchiga protssual kelishuvdan voz kechish huquqiga ega ekanligini tushuntirishi hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi qiynoqqa solinmaganligi, shafqatsiz va g'ayriinsoniy munosabatlarga duch kelmaganligiga ishonch hosil qilishi haqidagi qoidalar (AQSH);

2) aybga iqrорlik kelishuvi kuchga kirganidan kelishuv bitimini o'zgartirish imkoniyati mavjud emas, biroq basharti sudya bu adolatsizlik bo'ladi degan xulosaga kelsa, ayblanuvchiga kelishuv bo'yicha shartlarni bajarishdan voz kechishga ruxsat berishi mumkinligi haqidagi qoidalar (aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuvdan bir tomonlama voz kechish mumkin emasligi prezumpsiyasi);

3) aybga iqrорlik bo'yicha tuzilgan kelishuvga ko'ra, ayblanuvchining keyingi jinoiy faoliyati tergov qilinmasligi haqidagi qoida (Buyuk Britaniya).

4) aybga iqrорlik kelishuvini tuzishda prokuror o'z istagi bilan aybga iqrорlik bitimini tuzish taklifi bilan chiqishi mumkinligi haqidagi qoidalar (Fransiya).

5) sudya hatto ayblanuvchi ayblovni o'z zimmasiga olayotgan bo'lsa ham, ish materiallaridan uning aybsizligi yoki oqlash uchun asoslar mavjud bo'lgan hollar aniqlansa, uni oqlash huquqini nazarda tutuvchi qoidalar (Ispaniya).

6) aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv tuzgan voyaga yetmagan, o'z ahvoldagi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan ayblanuvchiga himoya huquqini va malakali yuridik yordamni ta'minlash mexanizmi batafsil bayon qilinishiga oid qoidalar (Germaniya).

7) aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuvni tuzishda jabrlanuvchining kelishuvni tuzishda fikri inobatga olinishi yoki olinmasligi aniq ko'rsatilishi, jabrlanuvchi sud majlisida ishtirok etishi mumkin va sud qaroridan norozi bo'lgan taqdirda unda shikoyat qilish huquqiga oid qoidalar (Ispaniya).

8) jabrlanuvchiga kelishuv tuzishda ishtirok etish, sud majlisida qatnashish huquqini mustahkamlashni, shuningdek ayblanuvchi kelishuv shartlarini bajarmagan taqdirda, kelishuvni tasdiqlashga e'tiroz bildirish huquqiga oid qoidalar (AQSH).

9) Aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuvni nafaqat sudga qadar ish yuritish bosqichida balki, jinoyat ishi sudga kelib tushgan vaqtdan boshlab to sud qaror qabul qilish uchun alohida xonaga kirgunga qadar ham tuzish mumkinligini jinoyat-protssual qonunchiligida nazarda tutish (Qozog'iston).

Bundan tashqari, xorijiy amaliyotda mavjud bo'lgan hamda sohadagi muammolarni bartaraf etishda so'nggi yillarda ijobiy tajriba sifatida ommalashgan "soddalashtirilgan ish yurituv tartibotlari"ni alohida bo'lim sifatida milliy jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritish ham maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin, degan fikr ilgari surilgan.

## XULOSA

Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv institutining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqilgan:

### **I. Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalar:**

1. Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv bu – jinoyat ishini sudga qadar yuritishning istalgan bosqichida o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon yoxud ayblovga iqrorlik (rozilik) bildirgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatni ochilishiga faol ko'maklashgan va yetkazilgan zararni to'liq qoplagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining iltimosiga yoki prokurorning tashabbusi (taklifi)ga asosan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va prokuror o'rtasida ixtiyoriylik asosida protsessual tartibda tuziladigan kelishuv (bitim)dir.

2. Qiyosiy tahlil natijasida quyidagi to'xtamlarga kelindi:

Birinchi, aybga iqrorlik va yarashuv – bu protsessual kelishuv bo'lib, birinchisi prokuror va ayblanuvchi, ikkinchisi ayblanuvchi (sudlanuvchi) va jabrlanuvchi o'rtasidagi kelishuv hisoblanadi.

Ikkinchi, protsessual kelishuv instituti tergov va sud organlari doirasida namoyon bo'lib, jinoyat ishini yuritishning yangicha, zamonaviy shakli hisoblanadi, hamda jinoyatga qarshi kurashishda o'zgacha qarashlarni ifodalab, jabrlanuvchi va jamiyat a'zolarining buzilgan huquq va erkinliklarini tiklashda faol ishtirok etishlari, muzokaraga kirishib, muammoni yechishga imkon berishga qaratiladi.

Uchinchi, yarashuv instituti qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaldagi jinoyat tarkiblarida zarar – jabrlanuvchi (jismoniy shaxs)ga, ayrimlarida esa (masalan, JKning 179, 185<sup>2</sup> va boshqa moddalarida) davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilishi mumkin. Biroq yarashuv institutini qo'llash sharti sifatida "jabrlanuvchi bilan yarashish" belgilangan bo'lib, jabrlanuvchi yuridik shaxs bo'lganida mazkur institutni qo'llash shartlari ochiq qolgan.

3. Aybga iqrorlik to'g'risidagi protsessual kelishuv qanday maqsadga ega ekanligi borasida shunday fikrni ilgari surishimiz mumkin:

birinchidan, kelishuvining ijtimoiy-huquqiy maqsadi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

jinoyatchilikka qarshi kurashish;

jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsni dastlabki tergov bosqichida axloqan tuzalishiga ko'maklashish;

jinoyatlarni individual va umumiy oldini olish;

qo'riqlash funksiyasini bajarish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlariga haqiqatda ko'maklashgan shaxsga tezkor, yengil shartlardagi axloqan tuzatish choralarini qo'llash;

latent jinoyatchilik darajasini, ochilmay qolgan jinoyatlar sonini kamaytirish.

Ikkinchidan, kelishuvning jinoyat-protsessual maqsadi quyidagilardan iborat:

jinoyatlarni tez va samarali aniqlash va tergov qilish;

protsessual chiqimlarni tejash;

jinoiy sud ish yurituvini maqbul tarzda tashkil etish;

ayblov va himoya tomonlari o'zining protsessual faoliyati maqsadiga erishishiga ko'maklashish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam bergan shaxsga jazoning yengillashtirilishini kafolatlash;

jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni tezkor va amalda qoplanishini ta'minlash.

4. Kelishuvni sudga qadar bosqichda tuzishning quyidagi belgilarini sanab o'tishni lozim topdik:

1) kelishuv jinoyat protsessual huquqi sohasidagi qarama-qarshi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni hal qilish usulidir;

2) kelishuv taraflar uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradigan protsessual huquqiy hujjatdir;

3) ishtirokchilarning irodasini ixtiyoriy ravishda namoyon qiladigan erk muxtorligidir;

4) kelishuv mazmuni taraflarning o'zaro maqbul shartlar va qonunda ruxsat etilgan o'zaro huquqiy yengillik va imtiyozlarni belgilashdan iborat;

5) yozma shaklda ifodalanib, soddalashtirilgan bo'lsa ham, ma'lum protsessual tartibotga rioya etishni ko'zda tutadi;

6) kelishuv bir necha ayblanuvchilar bilan tuzilganida, har biri bilan alohida tuziladi.

5. Kelishuvni sud bosqichida ko'rib chiqishning quyidagi belgilarini sanab o'tishni lozim topdik:

1) sud muhokamasi predmeti – bu ixtiyoriy, qo'yilgan aybning mohiyatini chuqur anglab, aybini so'zsiz tan olgan holda bayon etilgan aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv;

2) sud muhokamasi qisqartirilgan tartibda o'tkaziladi;

3) jabrlanuvchi ishtirok etadi, ammo uning kelmasligi ishni ko'rishga to'sqinlik qilmaydi.

4) aybga iqrorlik kelishuvi haqidagi masala jinoyat ishining sudga qadar bosqichida hal etilishi lozim;

5) belgilanadigan jazo maksimal jazoning yarmidan oshib ketishi mumkin emas;

6) jabrlanuvchining haq-huquqlari poymol etilmaydi;

7) aybga iqrorlik kelishuvini rasmiylashtirishda himoyachi ishtiroki shart;

8) chiqarilgan hukm ustidan yuqori instansiya sudlariga apellyatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat berish mumkin.

